

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

O'TKIR RASHID

SIZ BOR EKANSIZ, O'YLASAM...

She'rlar

TOSHKENT
«ADABIYOT»
2021

Loyiha rahbari
Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

Mas'ul muharrir
Mansur JUMAYEV

Taniqli shoir O'tkir Rashidning deyarli barcha she'rlari qo'shiqlarga aylanib ketgan. Bu qo'shiqlar qalbingizga orom bag'ishlaganiga ishonamiz. Ushbu majmuada shoirning bolajonlarga atalgan manzumalari, hajviy hamda qo'shiqlarga aylanib ketgan she'rlari o'rin olgan.

ISBN 978-9943-7106-3-4

© O'. Rashid, 2021
© «Adabiyot», 2021

YOG'IL, SHE'RIM

Yog'il, she'rim, yog'il yomg'irday,
Yog'il, qancha yog'ilsang-da kam.
Yog'il ko'zim nuridek bu dam
Yurak yonayotir yong'inday.

Bugun yurtim o'z zafari-la
Jahon bo'ylab dovrug' solgan kun.
Bugun g'olib, botir xalqimning,
Qudratiga yasaldi yakun.

Boshqachadir bugun har xona,
To'planishgan do'st, qarindoshlar.
Qadahlarda limmo-lim boda,
Ko'tarilgan g'ururdan boshlar.

Hamma yoqda suhbat, hol boshqa,
Tug'ilganday olam yangidan.
Ko'z tashlasang har qari, yoshga –
Olovlana sevinch rangida.

Qulog'imda yangray boshladi
Baxt kulgusi, xushchaqchoq ohang.
Ko'nlimga quvonch bag'ishladi
Kamalakni chulg'ab olgan rang.

Ko'z oldimdan o'tarlar bir-bir
Ko'ksi qalqon yigitlar – sherlar,
Qora iz-u soyadan oxir
Tozalangan chamanzor yerlar.

Ko'z oldimdan o'tarlar bir-bir
Diyorimning barcha ko'ylari.
Yurtda qiyg'os taraldi axir,
Ozodlikning yangroq kuylari.

Yog'il, she'rim, yog'il yomg'irday,
Yog'il, qancha yog'ilsang-da kam.
Yog'il ko'zim nuridek bu dam,
Yurak yonayotir yong'inday.

* * *

Men she'rimni tugatdim tongda
Tun ham uyqusini bitirdi.
Hayot yangrab yangroq ohangda
Menga yana ilhom keltirdi.

Hayot uyg'oq, yangi tong otar,
Hayot kular zumrad yaproqda.
Har hovuch nur, har kaft tuproqda
Hayotimiz nash'asi yotar.

DIYORIM

To'lin oydek to'lib turgan diyorum,
Quyosh yanglig' kulib turgan diyorum.
Kelinchakdek yasangansan chiroyli,
Nur-u mash'al bo'lib turgan diyorum.

Qavm-qondosh elga mehring poyondozi,
Ular mehri bilan ko'ngling sarafroz.
Yor-u do'stlar nafasidek bag'ringda,
Bahor yeli esib turgan diyorum.

Ko'ksing to'la turfa boylik – bisoting,
Ko'kka yetar paxtang, mashhurdir oting.
Yana faxr topib gul-gul yashnading,
Xo'b omadi kelib turgan diyorum.

Mard-u maydonlaring senga parvona,
Ardoqlaysan boshin silab sen, Ona.
Ta'rifingga ojiz shoir O'tkiring,
Elin shaydo qilib turgan diyorum.

QO'SHIG'IMDA SEN

Gulbog'larga ochib qulochim,
Tong yelida hilpirar sochim,
Daryo bo'lib oqib quvonchim,
Baxtim bor deb baxtni o'ylayman,
Vatan ishqin qo'ymay kuylayman.

Vatan, husnin ko'rib yayrayman,
Ming ko'z bo'lib unga qarayman,
Xizmatiga jon deb yarayman.
Baxtim bor deb baxtni o'ylayman,
Vatan ishqin qo'ymay kuylayman.

Bunda barcha ahil, do'st-yor,
Hammasining baxti, taxti bor.
Yana qayda bor bunday diyor,
Baxtim bor deb baxtni o'ylayman,
Vatan ishqin qo'ymay kuylayman.

To'tiyodir Vatan tuprog'i,
Sharqda mash'al hurlik chirog'i,
Hilpiraydi tinchlik bayrog'i.
Baxtim bor deb baxtni o'ylayman,
Vatan ishqin qo'ymay kuylayman.

YO'LING YORUG', TOSHKENTIM

Yo'ling yorug', quyosh sening qo'yningda,
Istiqbolning sarposi bor egningda.
Osiyoda mash'al bo'lib yonasan,
Qancha-qancha shaharlarga onasan.
O'tmishingdan ertaklaring bor uzoq,
Tinglab boshing silayotgan elga boq.

Har kun mehmon, to'yxonadek obodsan,
Do'stlaringga doim ochiq rabotsan.
Oyga tomon zinapoya uylaring,
Oy, quyoshni qo'shni qilish o'ylaring.
Yasha abad mash'al shahrim, gul shahrim,
Gullarga-yu bulbullarga mo'l shahrim.

U MENING KUYIMDA

Men hamisha uni sevib o'layman,
Yerda yurib, ko'kda uchib bo'layman.
Mehrimni soz qilib uni kuylayman,
O'ylaganim aytsam siz ham o'ylaysiz,
Men bilan jo'r bo'lib siz ham kuylaysiz.

U shunday go'zalki barcha mahliyo,
Hatto quyosh uni sevib sochar nur-ziyo.
Uning bezak-bisoti bor bir dunyo,
O'ylaganim aytsam siz ham o'ylaysiz,
Men bilan jo'r bo'lib siz ham kuylaysiz.

Bir bisoti – bag'ri to'la oltini,
Boy sepiga sovg'a qilgan el uni,
Mahliyodir barcha unga tun-kuni,
O'ylaganim aytsam siz ham o'ylaysiz,
Men bilan jo'r bo'lib siz ham kuylaysiz.

Bir bisoti – yaylov to'la qo'y-qo'zi,
Bir boyligi epchil o'g'il-u qizi,
Falaklarda chaqnar porloq yulduzi,
O'ylaganim aytsam siz ham o'ylaysiz,
Men bilan jo'r bo'lib siz ham kuylaysiz.

Aytib tamom qilolmadim bisotin,
Gulgun qildi zamon uning hayotin,
Aytay endi kimligini-yu otin,
Udir Vatan, uni siz ham o'ylaysiz,
Vatanim deb, sevib siz ham kuylaysiz.

SEN TUFAYLI

Nurli kunga yo'l oldik,
Qo'limizga gul oldik.
Nima olsak mo'l oldik,
Sen tufayli, Vatanim,
Sen o'zing jon-u tanim.

Sening mehring ichdik biz,
Erkin qushdek uhdik biz.
Baxt-u iqbol quchdik biz
Sen tufayli, Vatanim,
Sen o'zing jon-u tanim.

Yashnagan el-bog'imiz,
Yoniq dil chirog'imiz,
Nurafshon har chog'imiz
Sen tufayli, Vatanim,
Sen o'zing jon-u tanim.

Sen bor hurlik bizga yor,
Har onimiz baxtiyor.
Ko'ngillarda shavq, bahor
Sen tufayli, Vatanim,
Sen o'zing jon-u tanim.

O'ZBEKISTONIM

Elga qadrdonsan, O'zbekistonim,
Bir tan-u bir jonsan, O'zbekistonim,
Rohatbaxsh makonsan, O'zbekistonim,
Mashhur-u jahonsan, O'zbekistonim,
Hur O'zbekistonsan, O'zbekistonim.

Bahor kirgan bog'dek go'zal diyorsan,
Eling muhabbatli, doim dongdorsan,
Betugal boyliging borki nomdorsan,
Mashhur-u jahonsan, O'zbekistonim,
Hur O'zbekistonsan, O'zbekistonim.

Ozodlik nurida qayta yasharding,
Bir yigit umridek gulgun yashading,
Onalar bag'ridek bag'ring yashnatding,
Mashhur-u jahonsan, O'zbekistonim,
Hur O'zbekistonsan, O'zbekistonim.

Qondosh diyorlarga tutash Vatansan,
Diyorlar ko'z bo'lsa, sen qosh Vatansan.
Necha o'lkalarga sirdosh Vatansan,
Mashhur-u jahonsan, O'zbekistonim,
Hur O'zbekistonsan, O'zbekistonim.

BOG'IM YAXSHI, BAHORIM YAXSHI...

Xush havoli, yangroq navoli,
Bog'im yaxshi, bahorim yaxshi.
Toshi yoqut, tuprog'i oltin,
Tog'im yaxshi, diyorim yaxshi.

Hidi shifo, ovozi rohat,
Gulim yaxshi, bulbulim yaxshi.
Jonga huzur, dilga farog'at,
Suvim yaxshi, sumbulim yaxshi.

Shu bog'im deb, shu bahorim deb,
Shu tog'im deb, shu diyorim deb.
Shu gulim deb, shu bulbulim deb,
Shu Vatan deb, shu aziz jon deb.

Ahdim yashar, hur vaqtim yashar,
Baxtim yashar, poytaxtim yashar.
Elga mardlik, mahorat bergan,
G'oyam yashar, zo'r shaxtim yashar.

Aziz Vatan iqbolim yori,
Fido unga umrimning bori...

TINCHLIK KUYI

Oqar tinchlik kuyi yeldek yurtim-u hur
xonadonimda,
Ming shukur deyman bu tinchlik kuniga men
har bir onimda.

Bebahodir bir daqiqa tinglamoq tinchlik
kuyin,
Bo'lmasin noxush ovozlar kulgu to'lgan tinch
makonimda.

Musaffo bu gulshanimga kelmasin zog',
tushmasin soya,
Bu orzu o't bo'lib chaqnar har so'zim,
ko'nglim va qonimda.

El-u yurtim yashnatar bog', yoqar tinchlik
mash'alini doim,
Otam-onam, nabiram ham tilar tinchlik turib
yonimda.

Yog'masin hech o't-olovlar, bo'lmasin kul
keksa bu olam,
Oqmasin qon deydi O'tkir bu tabarruk Yer-
makonimda.

XALQIMGA

Istiqbolning oftobida pishdi qoningiz,
Yetdi dunyo qulog'iga shuhrat-shoningiz.
Hayot go'zal, shirin bo'ldi yegan noningiz,
Qutlug' bo'lsin sur'at bilan bosgan qadamlar.

Bugun davrim yozdi noyob ulug' baxtnoma,
Baland, quvnoq ovoz bilan yod etdi hamma.
Vatan bo'ylab yangramoqda shodlik, tarona,
Qutlug' bo'lsin baxtli zamon, shirin bu damlar.

Har insonning ishi qutlug' bizning Vatanda,
Qahramonlik g'ururi zo'r, jo'shar har tanda.
Har kun zafar quchishimiz bo'lmaydi kanda,
Qutlug' bo'lsin yangi zafar, yangi odamlar.

Safingizdan sadoqat-la berdingiz nomzod,
Ovozingiz o'zingizday kuchli va ozod.
Ozodlikning nashidasin surdi odamzod,
Qutlug' bo'lsin dala ko'rkin ochgan hotamlar.

Yelpir sizni hur davrning yoqimli yeli,
Odimingiz g'alabaga boshlar har yili,
Zafar, olqish mehnatingiz bog'ining guli,
Qutlug' bo'lsin siz undirgan yuksak raqamlar.

MEHRIM

Hali yoshman, yoshligimning xislatlari ko'p,
Yuragim ham o'g'lim kabi benihoyat sho'x.
Kezar mehrim go'daklarday sho'xlikni sevib,
Yoshligimga atab doim aytaman qo'shiq.

Hali yoshman, yoshligim-la sho'xligim yashar,
Har go'zallik charog'ida parvona mehrim.
Sevgim toshqin, to'solmayman, qirg'oqdan oshar,
Bayram tongi kabi shodman, ochiqdir bahrim.

Bayram tongi sho'x kuy yoyib navolar o'ynar,
Sadosidan jaranglaydi musaffo osmon.
Jaranglaydi har tomonda erka, sho'x kuylar,
Qo'ldan qo'lga sapchib o'g'lim yayrar qushsimon.

Quchib oldi shakar o'g'lim hidlab onasin,
Ko'kragiga talpinadi go'yo kapalak,
Labin so'rar, hidlab go'dak onaning isin,
Quyoshini tomoshaga chiqardi falak.

Ko'zimizni qamashtirar turfa bayroqlar,
Xuddi shafaq tusi kabi havo nimqizil.
Shaffof nurda yarqiratar cho'qqisin tog'lar,
Gulga, nurga burkanibdi har bitta manzil.

Yetakladi bizni shu kun bahor bayrami,
Yer-u ko'kni tutib shodlik, qo'shiq aytamiz.
Yurtimizda shunday o'tar Bahor bayrami,
Zavqqa to'lib yangrar doim har bir baytimiz.

XARITAGA QARAYMAN

Har dam xaritaga qarayman,
Yurtim, elim, bog'im ko'rinar.
To'yib-to'yib qarab yayrayman,
Bag'ri oltin tog'im ko'rinar.

Ko'rganimni, eshitganimni,
Ko'zgu kabi ko'raman unda.
Qishlog'imni, o'rtoqlarimni,
Sog'inganim sezaman shunda.

Ko'z oldimdan o'tarlar kulib,
Vatan bog'i, gul bahorlari.
Ko'z oldimdan o'tarlar to'lib,
Dongdorlar-u paxtazorlari.

Mehrim toshar, o'ylar oqadi,
Yurtim aziz naqadar menga.
G'urur dilga olov yoqadi,
Farzanddirman shu Vatanimga.

VATANIM

Chaman-chaman gullarga,
Sayroqi bulbullarga,
Toshqin daryo, ko'llarga,
Joydir go'zal Vatanim.

Ko'kni quchgan uylarga,
Baxt keltirgan to'ylarga.
Quvnoq-u sho'x kuylarga
Boydir mening Vatanim.

Yagonadir chiroying,
El bag'ridek bag'ring keng.
Sen hayot, ilhom berding,
Botir, go'zal Vatanim.

Porlar ezgu bayrog'ing,
Kundek yorug' chirog'ing.
Boylikka kon har yog'ing,
Nodir, go'zal Vatanim.

O'ZBEKNING G'URURI

Mutlaqo haqlidir bugungi o'zbek,
Qaddini ko'tarib so'zlasa mag'rur.
Ko'ksiga ko'k bayroq yarashganidek,
Unga yarashiqdir samoviy g'urur.

O'zbekning uyiga ko'rk bo'lib kirdi,
Ma'rifat, Istiqbol, Haq, Huquq nuri.
Baxtiyor elini qudratli qildi
Ozodlik, tinchlikning ezgu shuuri.

O'zbekning ming yillik orzulari hal,
Endi o'z yurtida g'arib emasdir.
Uning sharaf, baxtin bilish-chun avval,
Shashtli qadamiga qaralsa basdir.

Uning iftixori – oltin dalasi,
Dehqonning shuhratli izida gulzor.
Har tup g'o'zasining kamolotida
Vatanga baxsh etgan iliq mehri bor.

Bu yurtda qari ham, yosh ham ijodkor,
Tuproqdan oltinlar yaratmoq mumkin.
O'lkamda hur mehnat topdi e'tibor,
Tog'da ham, cho'lda ham hosillar to'kin.

Farg'ona boyligi, husniga boqsang,
Samarqand imlaydi, quvonching ortar.
Buxoro, Xorazm, Qarshi, Termiz ham
Fayzi-yu ko'rki-la bag'riga tortar.

O'zbekning yurtiga endi bir qarang,
Nurga kon, suvga mo'l cho'li-yu qiri.
Bu zo'r saodatning boisi shulki –
Orzuga tutashdir elimning yeri.

Mutlaqo haqlidir bugungi o'zbek,
Qaddini ko'tarib so'zlasa mag'rur.
O'lkamga ko'k bayroq yarashganidek,
Yurtimga yarashur samoviy g'urur.

YASHAMOQDA

Umr daftarini varoqlash odat,
Umrimiz ulug'dir, umrimiz aziz.
Bu umr tarixin jonli guvohi,
Yangi avlodidir, mana, siz-u biz.

Jahonning istagi, inson tilagi,
Orzu nomi bilan atalur bugun.
Ilg'or bashariyat zo'r ishonch bilan
Shu nom-la hayotga yo'l olur bugun.

Orzu qarashida aks etdi yorqin
Bugungi farovon ravnaq kunimiz.
Maqsadning shuuri bo'lib ol yolqin,
Charog'on ayladi kun-u tunimiz.

Yonar dilimizda mehr mash'ali,
Vatanim ravnaqdir, hayot farovon.
Ijod va iroda xalqim hunari,
Asriy vazifani bajarar har on.

Har o'lka, har shahar, maydon, har xona
Shu orzu-yu maqsad nomi-la obod.
Yurtim bayrog'ini e'zozlab, yona,
G'olib yashamoqda bugun odamzod.

YILLAR VA ODAMLAR

Yillar...

Uchqur yillar,

Qanotli yillar...

Yillar bir-birini quvalab o'tar,

Odamlar,

Odamlar yashinday yelar,

Odamlar yillarning etagin tutar.

Yillar tizginini ushlab odamlar,

Mehnat maydoniga yetaklar uni.

Kunlar-u oylardan tizib karvonlar,

Yillarga yuklarin ortar har kuni.

Yillarning yukida o'zbek paxtasi,

Ming-ming karvonlarni shoshirib qo'yar.

Tog'i-yu, bog'i-yu, cho'li – hammasi,

Yuklar maydonini toshirib qo'yar.

Ilm-u hikmatlarning karomatlari,

Yillar dasturxonin turar bezatib.

Kelgusi yillarning alomatlari

Kelajak tongini tutar tezlatib.

Hayratlanar yillar odam naqliga,

Odam naqliga-yu uning aqliga.

Yoqa tutib deydi: o'tgan ming yillar –
Bo'lmasa-ya so'nggi bir yilga teng-a!

Yillarni e'zozlab yangi odamlar,
Yillar mazmunidan qurar koshona.
Yillarni bezatgan, qadriga yetgan
Ozodlik atalmish yangi zamona.

GULSHAN DIYORIM

Gul diyorum bor mening,
Gulshan diyorum bor mening.
Mehnat-u baxtimning ko'rki
Paxtazorim bor mening.

Paxtazorim ishqida
Tun-kechalar bedorman.
Tongda oltin g'unchalar
Ochilmog'iga borman.

Paxtazorim bag'rida
Yursam nima, sevsam nima!
Har g'o'zamning ko'yida
Yonsam nima, kuysam nima!

Oy g'o'za, oydin g'o'za,
Oydek bo'lib to'lgan g'o'za,

Qo'ymading imlab meni hech
Jilmayib turgan g'o'za.

Olma deb terdim seni,
Hech qolma deb terdim seni.
Yurtga nur vodiysidan bir
Sovg'a deb terdim seni.

Gul diyorim bor mening,
Gulshan diyorim bor mening.
Mehnat-u baxtimning ko'rki,
Paxtazorim bor mening.

KUYLAGAYMAN

Yuzlarim oydek yorug',
Kundek charog'on ko'zlarim,
Misli yo'q gulgun diyorda
Shu'lalandi yuzlarim.
Bir quyoshli kunda chiqqanman,
Zimistondan qochib.
Nurga cho'mgan qush kabi
Uchdim qanotim keng ochib.
Yo'llarim to'sguchi bo'ron-u
Quyunlar endi yo'q,
Hur Vatanda bahra topdim,
Menga yordir baxt, huquq.
Shodman, ko'nglim bahordir,
Martabam tog'dan baland,
Mehr-u sevgim shu elimga,
Shu go'zal yurtimga band.
Kuylagayman doimo bu
Davr-u davronimni men,
Kuylagayman kuyga monand
Bu shirin onimni men.

O'ZBEKISTON DEYDILAR

Bu go'zal, oftob misol yurt,
O'zbekiston deydilar.
Bu diyor bag'rini rohat,
Bog'-u bo'ston deydilar.

Bog'lari bulbulga oshyon,
Tuprog'i oltinga kon.
Rang-barang sep-u chiroyi
Elga doston deydilar.

Toshkent Sharq mash'alidir,
Andijon oltin chiroq.
Ko'hli Farg'onamiz jannat,
Jonga darmon deydilar.

Ilm uyi ko'hna Samarqand,
Ham Buxoro-yu qadim.
Boyligin poyoni yo'qdir,
Katta karvon deydilar.

Qashqadaryo, qo'shni Surxon,
Sir, Amu sirdosh bo'lib.
Vodiyini nurga ko'mibdi,
Cho'l nurafshon deydilar.

Navqiron o'lkam yasanmish,
Egnida ko'rkam libos.
Bir ko'ring, bag'ri guliston,
Paxta maydon deydilar.

ISHQINGDA YONIB

Mehrim senga yor, yor-u diyorim o'lkam,
Men senga xushtor, bog'-u bahorim o'lkam.
Kezmasam bir kun bog'ing, chamanzoringni,
Bo'laman xumor, qalbda viqorim o'lkam.

Husningga boqib sahar-u shom to'ymayman,
Sen menga yoqib, oldim ilhom, to'ymayman.
Ishqingda yonib, qonib qaynoq mehringdan,
Daryodek oqib, toshib mudom to'ymayman.

Meni sho'x daryo qilgan yana sen o'zing,
Tilimni burro qilgan yana sen o'zing.
Berib soz menga, qilib jo'r ovozingga,
Bulbuligo'yo qilgan yana sen o'zing.

O'zingsan axir jannat va Eram bog'i,
Qo'sha-qo'sha senda-ku oltinlar tog'i.
Qay birin aytay, sig'mas qo'shiqlarimga,
Qayerga boqsa O'tkir – ilhom bulog'i.

DALAM

Oh, dalajon, dalajon,
Muncha sen oromijon.
Kunda quyosh boshingda,
Tunda yulduzlar marjon.

Dalam go'yo oq shohi,
Ko'k ipakdan arqog'i.
To'lib-toshsang o'rgilay,
Sen mehnatim qaymog'i.

Oq choyshabda g'o'zalar,
Tovlanadi go'yo zar.
Har tong nurga cho'milib,
Har tong qayta yasanar.

O'y-xayolim dalamda,
Mehri ko'z qarog'imda.
Unga suqli qarayman,
Ishqi o'rtar har damda.

Oh, dalajon, dalajon,
Muncha sen oromijon.
Kunda quyosh boshingda,
Tunda yulduzlar marjon.

SHUNDA, DEDIM

Ilhom izlab ketdim yiroq,
Har eshikka tutdim quloq.
– Qaydasan? – deb berdim so‘roq,
Ilhom: – Kel, men shunda, – dedi,
– Kelib turgan kunda, – dedi.

Qiyο boqsam bog‘ imladi,
Soy bo‘yi qirg‘oq imladi.
Chodiridan tog‘ imladi,
Ilhom koni shunda dedi,
Kelib turgin kunda dedi.

Bog‘da qo‘shiq, gulgun hayot,
Qirg‘oqda yor – bir parizod.
Tosh yo‘nadi tog‘da Farhod,
Izlaganing shunda dedi,
Kelib turgin kunda dedi.

Hayot oqar soydek toshib,
Bir-birini quvib, oshib.
Qayga boqay, qoldim shoshib,
Qayna sen ham shunda dedi,
Kelib turgin kunda dedi.

MEHRING

Nurli kunga yo'l bergan,
Qo'limizga gul bergan.
Rizq-u ro'zni mo'l bergan,
Orzularning dahosi,
Har mushkulning davosi.

Quyosh mehrin ichdik biz,
Erkin qushday uhdik biz.
Baxt-u iqbol quhdik biz,
Maqsadlarning dahosi,
Har mushkulning davosi.

Yashnadi yer, bog'imiz,
Yoniq dil chirog'imiz.
Matlab ko'z qarog'imiz,
Oqibatning dahosi,
Har mushkulning davosi.

Kunga payvand yuragim,
Mehr mening tilagim.
Kelar uni kuylagim,
Niyatlarning dahosi,
Har mushkulning davosi.

Bizga doim tinchlik yor,
Bizlar abad baxtiyor.
Yashnar o'lkada bahor,
Kelajakning dahosi,
Har mushkulning davosi.

YURTIM BAHORI

Oromijon ko'rinar yurtim bahori,
Bag'ri lazzat, shifodir uning nahori.
Bog'lar to'la gul, lola-yu sumbul,
Tongda kuyimga jo'r bo'lar bulbul.
Kezar, ardoqlar bahor nafasi,
Yangrar o'lkamda tinchlikning sasi.

Chaman aro yorimni uchratay deyman,
O'zim ekkan gullarni ko'rsatay deyman.
Atlas-u kimxob kiyibdi bog'lar,
Bizning boqqa ham keling, o'rtoqlar.
Dillarda bahor zavqi limmo-lim,
Tinchlik bahorin qarshilar elim.

MENING ISHQIM

Sening husn-u jamolingda nigorim,
Ko'rurman yashnagan gulshan diyorum.
Sening oftob misol baxting charog'i,
Mening kutgan nurafshon tong-nahorim.

Ajab gulgun yorug' oydin yuzingda,
Qilur jilva chamanzorim, bahorim.
Sening ishq ko'yida azming-u ahding,
Mening topgan shu yo'lda kuch madorim.

Mening ishqimdadur yorim, diyorum,
Shular olgan qo'limdan ixtiyorim.
Bu ishqimdan bo'lib O'tkir xabardor
Yozibdur-ki dilimda har na borim.

YO'LLARIM

Qayda yursam, ikki yonim gul chamanzor
yo'llarim,
Ham gul-u shirin-shakar, mo'l meva bozor
yo'llarim.

Suvga serob, nurga serob, xuddi ko'zgudek
yorug',
Yo'lga chiqqanlarga kun-u tunda bedor
yo'llarim.

Boshimizga soyabondir goh ishkomb, goh
chinor,
Yo'l yurarmiz, mo'l yurarmiz bermas ozor
yo'llarim.

Barcha yo'l mehmonni kutgandayin shay
bag'ri ochiq,
Xuddi yo'ldoshdek kishiga do'st-u hamroh
yo'llarim.

Bu go'zal dillarda dilkash, sevikli bir yor
kerak,
Yor agar bo'lsa yonimda har on bahor
yo'llarim.

ODAMLAR

Vatan agar tana bo'lsa, unga bir jon odamlar,
Bu tanada ravon oqqan pokiza qon odamlar.

Hayotning u ziynati-yu ham ko'rki-yu, ham guli,
Ham yurtiga boylik bo'lgan toshqin vulqon
odamlar.

Yaxshi niyat, yaxshi orzudan qanotli ot yasab,
Ertaning yo'lga chiqqan katta karvon
odamlar.

Manzil uzoq, kutar unda parilardek baxt,
iqbol,
Oshiqlarday shoshar, toshar, oshar davon
odamlar.

Bir yelkada oila-yu, bir yelkada yurt yuki,
Intiladi yana baxt-u iqbol tomon odamlar.

Bu odamlar borki, O'tkir, bor hayot-u
odamzod,
Vatan obod, qolar zurriyot, bo'lsin omon
odamlar.

UMR

Qayta qaytmas umringiz, behuda o'tkazmang uni,
Bebaho boylikni boy bermang-da,
yutqazmang uni.

Umringizning har kuni ipga tizilgan marvarid,
Ipni uzmang, donasin bekorga ketkazmang uni.

Tentirab behuda yurmang, umringiz o'g'risi ko'p,
Har falokatlar uzatgan qo'lga tutkazmang uni.

Umringiz bog'ida ungan har nihol, har gulni siz,
Parvarish aylang hamisha, bemahal uzmang uni.

Umringiz asli uzoqdir, o'q qilib gar otsangiz,
Qattiq otmang, oxiriga tezda yetkazmang uni.

Umringiz yo'lida qolsin nurli iz, yaxshi saboq,
Bu – umr qonuni, O'tkir, siz sira buzmang uni.

O'ZINGDANDIR

Boshingga ne balo yog'sa – birovdanmas,
o'zingdandir,
Yo'lingdan gar adashsang, bil, qing'ir bosgan
izingdandir.

Yo'ling uzra yozar bo'lsa eling hurmat
poyondozin,
Biri mehnat, biri obro', biri rizq-u
ro'zingdandir.

Agar suhbat aro do'sting ketar bo'lsa qo'lin
siltab,
Biri yolg'on, biri g'iybat, biri tuzsiz
so'zingdandir.

Senga farzandlaring intiq bo'lib ildam eshik
ochsa,
Biri soflik, biri poklik bilan bergan
tuzingdandir.

Izingdan kim hayosizlik, ibosizlik toshin otsa,
Biri charm-u, biri kesak qaro ikki
yuzingdandir.

Hamisha do'stlaring O'tkir kabi yo'qlab kelar
bo'lsa,
Biri sehring, biri mehring bilan boqqan
ko'zingdandir.

YAXSHIROQ

Qayda ne ish qilsangiz oldindan o'ylang
yaxshiroq,
O'lchang-u ming, bir kesing, har ishni
bo'ylang yaxshiroq.

Xoh kichik, xoh katta kelsa, ko'z kulib
bersin salom,
Mehribon bog'lang-u unga xizmat aylang
yaxshiroq.

Sizda ham bor bu uzun til, bejilov
qo'ymang uni,
Tilga avval surting-u bol, so'ngra so'zlang
yaxshiroq.

Oila keksa daraxtdir, siz uning bir
navdasi,
Avvalo ildizni asrang, tupni poylang
yaxshiroq.

Ahli odam bir xayrli ishga bosh qo'shgan
ekan,
Bo'lmayin tomoshabin siz, belni bog'lang
yaxshiroq.

Siz hamisha yaxshilikni o'rtog'-u hamroh
tuting,
Doimo O'tkir kabi har joyda kuylang
yaxshiroq.

ATLAS KO'YLAGING

Keksa-yu yoshni qilar parvona atlas
ko'ylosing,
Ko'pni qilgay oshig'-u devona atlas ko'ylosing.

Kiysa har qiz, egnida go'yo olovdek parpirar,
Keksani ham qilgusi yosh-jonona atlas
ko'ylosing.

Bu libos to'y-u hasham, bayram safosin
eslatar,
To'yga ham u bebaho to'yona atlas ko'ylosing.

U quyoshning nurlaridanmu to'qilgan, tovlanar,
Xuddi gullar rangidek gulxona atlas ko'ylosing.

Navbahorning elchisi ul kamalakdek rang-barang,
Sevgiga ham ilk bora bahona atlas ko'ylosing.

Desam qaydan bu libos? Deydi: makoni
Marg'ilon,
U go'zallik bobida Farg'ona atlas ko'ylosing.

MADADKORLAR

Salomatlik posbonisiz,
Xonadonlar mehmonisiz.
Bemorning do'st-u jonisiz,
Siz shifokor, madadkorlar,
Sizni deydi dardi borlar.

Yaxshi hamki bor ekansiz,
Biz uchun bedor ekansiz.
Hammaga darkor ekansiz,
Siz shifokor, madadkorlar,
Sizni deydi dardi borlar.

Bemorlarga parvonasiz,
Goh ota-yu, goh onasiz,
Goh mehribon hamxonasiz,
Siz shifokor, madadkorlar,
Sizni deydi dardi borlar.

Ojiz ko'zga nur quyasisiz,
So'niq dilga qo'r quyasisiz,
Hayotga garov turasisiz,
Siz shifokor, madadkorlar,
Sizni deydi dardi borlar.

Sizga bizning rahmatimiz,
Siz bilandir rohatimiz.

Deydi O'tkir, sog' bo'ling siz,
Siz shifokor, madadkorlar,
Sizni deydi dardi borlar.

YOSHLIK YALLASI

Biz yoshlar hamisha navqiron, bardam,
Bizlarga hamrohdir fan, ilm har dam.
Oy-u yulduzlarga yetar qo'limiz,
Bizlar uchun osmon endi bir qadam.

Bizlar kelajakka intilgan avlod,
Ilm-u fan, mehnatda topamiz najot,
Kuch berar, nur berar zamon mash'ali,
Quyoshdek porlaydi yoshlig-u hayot.

Yoshlikni olqishlar gul diyor, bahor,
Yoshlikdek go'zaldir har chaman, gulzor.
Barkamol yoshlik-la xonamiz obod,
Yurtimizda doim tinchlik barqaror.

ONALAR, DUGONALAR

Onalar, dugonalar,
Uy-joy bilan ovvoralar.
Uyga-yu farzandiga,
Ham yoriga parvonalar.

Uyni butlash o'yingiz,
Gulgun yasangan uyingiz.
Uy to'la zuryod-ki bor,
Niyatingiz – ko'p to'yingiz.

Uyning siz ko'z qarog'i,
Xonadonning shamchirog'i.
Siz ko'ngilda oftobsiz,
Yashnagay dil bog'i-rog'i.

Sizga maftun yoringiz,
Ham yor-u, ham gulzoringiz.
Ko'zni giryon aylagay
Ham qomat-u, ruxsoringiz.

Yaxshi yor-u onasiz,
Baxt bilan hamxonasiz.
Mehribonsiz, kim agar –
Dard tortsa siz ham yonasiz.

KO'Z SHIFOKORLARI

Deylilar-ki, ko'z – bu dunyo ko'zgusi,
Ne bor, inson ko'zlar bilan ko'rgusi.

Kishi baxti shu-ki, ochiq ko'z bilan
Bu olamning lazzatini surgusi.

Bu boylikning qo'riqchisi shifokor,
Shikast topgan ko'zga davo bergusi.

Ko'z nuriga mehr nurin ulaydi,
Mehr bilan yoningizda turgusi.

Shifokorlar ko'z ichiga kirganday
Ko'z dunyosin kezib bilib yurgusi.

Shifokorga ta'zim qilar O'tkir ham,
Ular aziz, ko'zning umrin cho'zgusi.

FARZAND

*O'nta bo'lsa o'rni boshqa,
Qirqta bo'lsa – qilig'i...*

Maqol

Farzand oilada hayot ziynati,
Turmush quvonchlarin barisi shundan.
Ota-yu onada bir g'urur, mehr –
Tug'ilar shu farzand tug'ilgan kundan.

Men ham ota bo'ldim yetti jujuqqa,
Har biri bo'ladi po'lat qanotim.
Yasharkan Vatanim, g'oyam, farzandim,
Yashaydi bularda mening ham otim.

Teva yukin bo'ta yengil qilgandek,
Onaga zo'r tayanch bo'ladi farzand.
Ota umrining u davomi demak,
Keksa tupga naycha bo'lgandek payvand.

Birini Ulug'bek dedim, bu nomni
Oqlasin ilm ila olimlarga xos.
Birining ismini Rustam deb qo'ydim,
Ravshan biri, nurga bo'lsinlar qiyos.

Yoshim ulg'aymoqda, niyatlarim ko'p,
El-yurtga xizmatim hali juda kam.
Baxtliman farzandlar kamim to'ldirib,
Porloq kelajakka qo'yishsa qadam.

O'QITUVCHI

Bola tug'ilarkan, aytolmas hech kim,
Aytolmas ulg'aysa kim bo'ladi u.
Olimmi, hunarmand yo ishchimi – kim?
Biror kasb-hunarga boshlaydi uquv.

Maktab ostonasin bosganda bola,
G'unchalar ochadi ilk orzu, tilak.
Bu orzular hali bahorgi lola,
Muallim ardoqlar uni bog'bondek.

Muallim – yetakchi, rahnamo, ustoz,
Har orzu, har istak, har bir xohishga.
U berar doimo aqlga pardozi,
Beradi yo'llanma hayotga, ishga.

O'quvchi uchuvchi, hunarmand, olim,
Yo adib, yo shoir bo'lib yetishar.
Lek saqlab yodida ustozin doim,
Orzusini ustoz-la birga ushatar...

DO'PPIMIZ

Boshimizga soyabonday boshda do'ppimiz,
Yarashig'liq ham qari-yu yoshga do'ppimiz.

Izzat-hurmat nishonasi kiygizsak uni,
Qadrlidir har do'st-u qardoshda do'ppimiz.

Boshimizga oy qo'nganday turar parpirab,
Har marosim, bayram, to'y-u oshda
do'ppimiz.

Ba'zan sevinch daryo bo'lib tohsa yurakda,
Qushday uchib o'ynaymiz-u qoshda do'ppimiz.

Qaysi yurt-u elda yursak kimligimizni –
Anglatganday bo'lar bir qarashda do'ppimiz.

Kiygizib O'tkirga do'ppi, deyishdi do'stlar,
Yarashdi xo'b sizga ham shu yoshda do'ppimiz.

SALOM

Sayr etib keldim diyorni, do'st-u yorlardan salom,
Cho'l quvib, zar konin ochgan paxtakorlardan
salom.

Tog', adir, yaylovni ko'k yulduzlaridek
to'ldirib,
Bir qo'yin ming bir qilishga ahdi borlardan
salom.

Bog' ekib, shirin-shakar bor mevasin ko'z-ko'z
qilib,
Chakkasida gul-u ko'ngli navbahorlardan
salom.

Ham quruvchi, ham tikuvchi, ham shifokor,
olima,
Qo'li gul-u o'zi bulbul yaxshi yorlardan salom.

Har go'zallik gasht-u zavqin kuylagan O'tkir
kabi,
Shoir-u xonanda-yu ham bastakorlardan
salom.

KELING, YOR, KO'RING

Bitdi yangi uyimiz,
Keling, yor, ko'ring.
Sizni kutar to'yimiz,
Keling, yor, ko'ring.

Uy oldini yo'l qildik,
Keling, yor, ko'ring.
O'rtasini gul qildik,
Keling, yor, ko'ring.

Gul oralab suv oqar,
Keling, yor, ko'ring.
Suv betida nur oqar,
Keling, yor, ko'ring.

Gulzor yoni supacha,
Keling, yor, ko'ring.
Soldik atlas ko'rpacha,
Keling, yor, ko'ring.

Sizga to'rdan joy qo'ydik,
Keling, yor, ko'ring.
Kelasiz deb choy qo'ydik,
Keling, yor, ko'ring.

Qo'lda jonon piyola,
Keling, yor, ko'ring.
Sizni kutar gul-lola,
Keling, yor, ko'ring.

TONG OHANGI

Qulog'imda yangray boshladi
Yana tanish, quvonchli ohang.
Yuzlarimga nur bag'ishladi
Sharqda qiyg'os otayotgan tong.

Yana quvonch, qalblarda orom,
Yana yurtida kezar gulbahor.
Yana go'zal qizlar qo'lida
Baxtin kuylab sayraydi dutor.

O'YLARIM

Halima Nosirovaga

O'ylarim, siz o'ylarim,
Sizni kuylar kuylarim.
Eslatasiz yoshligim,
Quvonchlarim, to'ylarim.

Nedir xayolim oldi,
Dilimga bir ishq soldi.
Bu ishq bilsam kuy ekan,
Kuyim yor bo'lib qoldi.

Sahna bag'rini ochdi,
Sevinchim to'lib-toshdi.
Kuyim tinglab el-yurtim,
Yo'limga gullar sochdi.

Kimga oshiqman, mayli,
Sahnada men goh Layli,
Goh Shirin-u Gulsara –
Bular san'atim zayli.

Yoshligimday san'atim,
Yashar hali, shu ahdim.
San'atim menga haykal,
El-yurt sevdi – shu baxtim.

YULDUZIM

Yulduzlar, hoy yulduzlar,
Muncha iliq boqasiz?
Uzoqdan boqsangiz ham,
Menga juda yoqasiz.

Ko'z qisasiz, imlaysiz,
Yaxshi yorga o'xshaysiz.
Xuddi biron yashirin
Gapi borga o'xshaysiz.

Havas qilib, jilmayib,
Oy qarar ikkimizga.
Oy nuriga chirmashib, –
Borgim keladi sizga.

Goh osmonga iz solib,
Olov bo'lib uchasiz.
Bunchalar shoshilib, siz
Bilmam, kimni quchasiz.

Sho'xlik, erkingiz bilan,
Xuddi siz mening o'zim.
Menga juda o'xshaysiz,
Siz emasmi yulduzim.

SPORTCHIMAN

Chopib qushday uchaman,
Sof havoni ichaman.
Suv kelsa ham kechaman,
Sportchiman, sog' tanim,
Ardoqlaydi Vatanim.

Muzdek suvda suzaman,
Sheriklardan o'zaman.
Dunyo bo'ylab kezaman,
Sportchiman, sog' tanim,
Ardoqlaydi Vatanim.

Charm qo'lqop kiyaman,
Bu sport turin qiyaman.
Kurashni ham suyaman,
Sportchiman, sog' tanim,
Ardoqlaydi Vatanim.

Chang'ilarda o'ynayman,
Yangi mashqlar o'ylayman,
Balga ochko ulayman,
Sportchiman, sog' tanim,
Ardoqlaydi Vatanim.

Sportdagi har mashqim –
Mening sevgan yumushim.

Sportga tushgan bor ishqim,
Sporchiman, sog' tanim,
Ardoqlaydi Vatanim.

CHAQALOQLAR

Nurli uyimiz ayladi obod chaqaloqlar,
Dillarni qilur ravshan-u ham shod chaqaloqlar.

Chaqaloq bor-u uyimiz bozor, to'yimiz bor,
Har oilaning orzusi zurriyod chaqaloqlar.

Qizg'aldog'i gul, o'g'loni bulbul, shakar-u bol,
Bo'lg'usi Shirin, bo'lg'usi Farhod chaqaloqlar.

Oy parchasidek qo'ldan uchib talpinar oyga,
Zabt etaman der osmonni, hayhot, chaqaloqlar.

Onalar bag'ri jigar go'shasiga keng jahon,
Shunda yetilar aslida sherzod chaqaloqlar.

BAHOR TONGIDA

Navro'z yetakladi, gul boqqa chiqdim,
O'rik, bodomlarim oppoq kiyimda.
Ariqlarda toshib suv oqar lim-lim,
Xayol o'g'irlandi, bilmadim, kimda!

Xayolni o'g'irlar quloqqa yoqqan
Kimningdir yoqimli, sho'x ashulasi.
Xayolni o'g'irlar dimoqqa oqqan,
Chechaklar hidi-yu bahorning isi.

Xayolni o'g'irlar baxmal o'tloqlar,
O'g'irlar gul emib uchgan bolari.
Xayolni o'g'irlar, dilni ardoqlar
Bahor bog'idagi go'zallik bari.

Qo'shni qiz devordan mo'ralab dedi:
– Bizning shaftoli ham shig'il gullabdi.
Dedim: – Bu faslni gulbahor deydi,
Sizni ham gullatar bu fasl tafti.

Har bog'da, har yoqda bahorning izi,
Bahor taraddudi, yoz chaqirig'i.
Zeb berar zaminga Tabiat qizi –
Bahor ham quyoshning jilvakor tig'i.

ONALAR

Siz oromijon ekansiz,
Farzandga darmon ekansiz.
Bir tan-u bir jon ekansiz,
G'amxo'rimiz siz onalar,
Qalb qo'rimiz siz onalar.

Yarashasiz xonamizga,
Mehribonsiz ona bizga.
Bizdan ham jon fido sizga,
G'amxo'rimiz siz onalar,
Qalb qo'rimiz siz onalar.

Umrimizga qo'shib umr,
Dilimizda eng zo'r tomir.
Sizga deymiz ming tashakkur,
G'amxo'rimiz siz onalar,
Qalb qo'rimiz siz onalar.

Qalbimizda mehringiz bor,
Mehrigiyo sehringiz bor.
Baxtimizga ona siz bor,
G'amxo'rimiz siz onalar,
Qalb qo'rimiz siz onalar.

AYOLLAR

Siz ayollar, onasiz,
Biz bilan hamxonasiz.
Farzandga parvonasiz,
Mehribonsiz, ayollar,
Tanga jonsiz, ayollar.

Siz ayolsiz, yorsiz,
Sevikli dildorsiz.
Yor uchun bedorsiz,
Mehribonsiz, ayollar,
Tanga jonsiz, ayollar.

Siz ayollar, opasiz,
Uka ko'nglin topasiz.
Sovchilikka chopasiz,
Mehribonsiz, ayollar,
Tanga jonsiz, ayollar.

Siz ayollar turfaroq,
Yoshlik chog'da qizaloq.
Siz hamisha sho'x, quvnoq,
Mehribonsiz, ayollar,
Tanga jonsiz, ayollar.

Siz-ku yor, singil-u qiz,
Keksayganda buvisiz.

Sizsiz turolmaymiz biz,
Mehribonsiz, ayollar,
Tanga jonsiz, ayollar.

YOR UCHUN

Men borarman yor uchun,
Yor uchun, diydor uchun.
Intizor bo'lgan vafodor,
Yorga mehrim bor uchun.

Men borarman tog' oshib,
Tog' oshib, yeldek shoshib.
Qo'ymadi dil o'rtanib,
Lov-lov yonib, soydek toshib.

Men borarman gul bilan,
Ham gul bilan, ko'ngil bilan.
Kuylarimda yor visoli,
Jo'r bo'lib bulbul bilan.

Men borarman sog'inib,
Ming sog'inib, ming to'lg'onib.
Yor yiroq ketsa, ketarmu,
Yori mehridan tonib?!

TO'Y MUBORAK

To'yga keldik, to'ylaringiz muborak,
To'yga yangi kuylaringiz muborak,
Yaxshi niyat-o'ylaringiz muborak,
Yaxshi kunda to'ylaringiz muborak,
Shodlik to'la uylaringiz muborak.

Har kunimiz o'zi bir to'y-shodiyona,
Jam bo'lishdik do'stlar, to'y bir bahona.
Biz kuylaylik, o'ynasin sho'x jonona,
Yaxshi kunda to'ylaringiz muborak,
Shodlik to'la uylaringiz muborak.

Qani, o'ynang, bir ko'raylik, ey do'stlar,
To'y gashtini bir suraylik, ey do'stlar.
Lola qadah ko'taraylik, ey do'stlar,
Yaxshi kunda to'ylaringiz muborak,
Shodlik to'la uylaringiz muborak.

To'y sevgining ahdi bayrami demak,
To'yga o'yin, avji baland kuy kerak.
Bergusi to'y shodligimizdan darak,
Yaxshi kunda to'ylaringiz muborak,
Shodlik to'la uylaringiz muborak.

XUSH KELIBSIZ TO'YIMIZGA

Kelin keldi, yo'l beringlar,
Peshvoz chiqib gul beringlar.
Sochqi sochdik, tez teringlar,
Xush kelibsiz to'yimizga,
Qo'shilinglar kuyimizga.

To'y – bu havas va orzumiz,
To'yda yangrar kuy, sozimiz.
Xizmat qilib biz rozimiz,
Xush kelibsiz to'yimizga,
Qo'shilinglar kuyimizga.

Kelin-kuyov baxtli bo'lsin,
Ahil bo'lsin, ahdli bo'lsin.
Qo'sha qarib taxtli bo'lsin,
Xush kelibsiz to'yimizga,
Qo'shilinglar kuyimizga.

Ota-ona mehrin ko'zlang,
Shirin bo'lib, shirin so'zlang.
Kelin-kuyov shuni o'ylang,
Xush kelibsiz to'yimizga,
Qo'shilinglar kuyimizga.

To'yga monand zamonamiz,
Shodlikka biz parvonamiz.

Baxtin kuylar taronamiz,
Xush kelibsiz to'yimizga,
Qo'shilinglar kuyimizga.

KELIN SALOM

Kelin chiqdi uyidan,
Aylonayin bo'yidan.
Ana, boshlar salomin,
Assalom, kelin salom.

Kelinimiz yangicha,
Men kelinga yangacha.
Buktirmayman qaddini,
Assalom, kelin salom.

Gul o'stirgan bog'bondek,
Karvonboshi sarbondek.
Opog'dadalariga
Assalom, kelin salom.

Bag'ri to'la nevara,
Shular bilan ovora.
Katta buvilariga
Assalom, kelin salom.

Salobatli sadadek,
Dada desa dadadek.

Qaynotalariga
Assalom, kelin salom.

Xonadonning oftobi,
Uyning hozirjavobi.
Qaynonalariga
Assalom, kelin salom.

Izvoshning qo'sh otiday,
Pahlavonlar zotiday.
Qaynog'alariga
Assalom, kelin salom.

Yulduzmi dey, oymi dey,
Shu uyga chiroymi dey.
Qaynegachilarga
Assalom, kelin salom.

Oilaning tojiday,
Qo'shiqlarning avjiday.
Ovsin, ovsinchalarga
Assalom, kelin salom.

Kelinga baxt tilovchi,
Uning boshin silovchi.
Hamma qarindoshlarga
Assalom, kelin salom.

O'YLASAM

Yor ekansiz, o'ylasam,
Dildor ekansiz, o'ylasam.
Jonga orom, yaxshiyam –
Siz bor ekansiz, o'ylasam.

Siz hayotim bog'i-rog'i,
Siz ko'nglimning shamchirog'i.
Ishqimiz kuyida siz –
Bedor ekansiz, o'ylasam.

Baxt-u taxtim siz bilan,
Paymon-u ahdim siz bilan.
Ishq umrin faslida
Bahor ekansiz, o'ylasam.

Mendagi jon o'zingiz,
Ham yaxshi jonon o'zingiz.
Siz mening-chun har nafas
Darkor ekansiz, o'ylasam.

Sizni men chin yor deganman,
Yaxshi yor topgan ekanman.
Ham uy-yu o'yimda siz –
Hamkor ekansiz, o'ylasam.

MUNCHA YAXSHISIZ?

Yaxshi yorlar ichida yagonasiz o'zingiz,
Gulsiz, gulzorlar aro bir donasiz o'zingiz.
Yaxshi ham o'z yorimsiz, hamxonasiz o'zingiz,
Muncha yaxshisiz?

Sizga suqli boqaman, fikr-u yodim siz bilan,
Sevib suvdek oqaman, fikr-u yodim siz bilan.
Yaxshi sizga yoqaman, fikr-u yodim siz bilan.
Muncha yaxshisiz?

Siz kirsangiz xonamga, oy kirganga o'xshaydi,
Quyosh so'nib, o'rnidan joy berganga o'xshaydi.
Rashk qilaman, u sizni yoqtirganga o'xshaydi,
Muncha yaxshisiz?

Ko'ksingizga nishondek chaqaloq ham yarashar,
Yulduzlar ham orombaxsh bu o'rinni talashar.
Muncha so'limsiz, hamma havas bilan qarashar,
Muncha yaxshisiz?

BOQQA KIRDIM

Boqqa kirdim, bog'da yorim bor uchun,
Bog'da bog'bon intizor diydor uchun.
Har gulin o'z chehrasidek yashnatib,
Bog'iga shaydo qilgan ul yor uchun.

Boqqa kirdim bog'da yorni ko'rgani,
Unda yor bosgan izidan yurgani.
Yor agar bersa uzib bir dasta gul,
Ming o'pib, hidlab ko'zimga surgani.

Boqqa kirdim gul bahona gul so'rab,
Ko'zlarimga yorga ishqimni o'rab.
Tushdi nogoh yor ko'ziga ko'zlarim,
Boqdi yor qush boqishidek yotsirab.

Boqqa kirdim, bog'da gul gulgun chaman,
Bog' aro bir yoqda yor, bir yoqda man.
Yor va gulzor husnini ko'z-ko'z qilur,
Bu husnning zavqida yonmoqdaman.

BILGANMISIZ?

Bir ko'rib, men bo'lganimda mahliyo bilganmisiz,
Suratingiz etganimda dilga jo bilganmisiz?

Bir jahon husn-u chiroy birla ko'zimga
kirdingiz,
"Yopiray!" deb ko'z yumib, tutsam yaqo
bilganmisiz?

Yangi chiqqan oyni tun baldoq qilib taqqandayin,
Chehra oftob, qosh hilol sochsa ziyo bilganmisiz?

Ikki shahlo ko'z kitobga nur quyar yondirgudek,
Yoningizda o'ltirib, boqsam qiyo bilganmisiz?

Siz ilmga mahliyo-yu, hamma sizga mahliyo,
Yer-u osmon bo'lsa sizga muhtalo bilganmisiz?

Bir ko'rib men bo'lganimda mahliyo bilganmisiz,
Suratingiz etganimda dilga jo bilganmisiz?

QO'SHNI QIZ

Sizga ishqim tushdi-yu, siz bilmadingiz, qo'shni qiz,
Yo'lingizda kutdim-u siz kelmadingiz, qo'shni qiz.

Ishqi mehrim qo'ymadi hech, bog'ingizga
kirdimu,
Sezmaganday bir nigoh ham qilmadingiz,
qo'shni qiz.

Bog'ingiz gulga ko'mibsiz, gulga o'chsiz-ku, nega,
Dasta gul otsam nazarga ilmadingiz, qo'shni qiz?

Bu yaratgan bog'ingizga xol bo'libdi husningiz,
Gul ochildi, siz nechun ochilmadingiz, qo'shni qiz?

Olma shoxida turibsiz xuddi oy yo'ldoshidek,
Imlasam ham, joyingizdan jilmadingiz,
qo'shni qiz.

Men qo'shiq birla dilimni ming tilib ko'rsatdimu,
Bir anor bag'rini ham siz tilmadingiz, qo'shni qiz.

Ko'nglingiz menda ekan-ku, bir boqishda
angladim,
Ko'nglingizga kirdim-u, siz sezmadingiz,
qo'shni qiz.

QISHLOG'IMIZNING KO'RKI

Qishlog'imiz ko'rkka boy, unga bahor ekansiz,
Bahor-u yoz faslidek unga darkor ekansiz.

Nafas-u poyingizdan ko'karar olam-jahon,
Bu momo yer ishqida yonib bedor ekansiz.

Yerni qilib xazina, toshdirib noz-u ne'mat,
Uni elga sochasiz, himmati bor ekansiz.

Aziz padardek ulug' sizning dehqon nomingiz,
Qishloqda siz bunyodkor zo'r paxtakor ekansiz.

Yer ilmini uqibsiz, ob-u havo darsingiz,
Olim bilan hamnafas ishda hamkor ekansiz.

Peshonadan oqqan ter ko'ksingizda yarqirar,
Havas qilar O'tkir ham, qo'sh nishondor ekansiz.

QO'SHIG'IM BOR, QO'SHIG'IM

Do'stlar, yor-u yoronlar, shirin ekan bu damlar,
Shirin damga atalgan qo'shig'im bor,
qo'shig'im.

Umrim yo'li navbahor, har go'zallik menga yor,
Go'zallikka atalgan qo'shig'im bor, qo'shig'im.

Gulbog'im bor, gulbog'im, har guli ko'z
qarog'im,
Shu bog'imda yetilgan qo'shig'im bor,
qo'shig'im.

Qo'shiq aytib yayrayman, bulbul bo'lib
sayrayman,
Bulbul bilan jo'r qilgan qo'shig'im bor,
qo'shig'im.

Hur mehnatim – davlatim, elim, yurtim
savlatim,
Iftixorim shu degan qo'shig'im bor,
qo'shig'im.

Keling, o'ynab-kulaylik, baxtimizni kuylaylik,
Baxt kuyi deb atalgan qo'shig'im bor,
qo'shig'im.

KEL, DEDI

Kel, dedi, kelsin dedi,
Gulbog'imni ko'rgin dedi.
Men bilan turgin dedi,
Borsam, joyi gulzor ekan,
Ko'rsam, o'zi dildor ekan.

Yur dedi, tez ko'r dedi,
Cho'llarning gashtin sur dedi.
Bunda mehnat zo'r dedi,
Borsam, joyi gulzor ekan,
Ko'rsam, o'zi dildor ekan.

Qirga gul, rayhon ekib,
Sahroga "Oq oltin" tikib.
Cho'lni olibdi egib,
Borsam, joyi gulzor ekan,
Ko'rsam, o'zi dildor ekan.

Keldim-u bir suymadi,
Yur, paxta ter deb qo'ymadi,
Terdi-yu hech to'ymadi,
Borsam, joyi gulzor ekan,
Ko'rsam, o'zi dildor ekan.

KIM DESAM?

Ko'rib kim ekan desam, u ko'zi xummorim,
Qarab tursam, vo ajab, ul o'zimning yorim.
Guldek yuzida xoli g'uncha gulruxsorim,
Shu yor meni shaydo qilgan bog'-u bahorim,
Uni o'ylar, uni kuylar qo'shig'im, torim.

Go'zalligi bir dunyo-yu, o'zi bir olam,
Boqsa dilni yayratadi ko'zi bir olam.
Kulib turib so'zlagan har so'zi bir olam,
Shu yor meni shaydo qilgan bog'-u bahorim,
Uni o'ylar, uni kuylar qo'shig'im, torim.

U uyimning ham dilimning ravshan chirog'i,
Oydin husni bilan yoniq ko'zim qarog'i.
Shu yor bilan hayotimning rohat, farog'i,
Shu yor meni shaydo qilgan bog'-u bahorim,
Uni o'ylar, uni kuylar qo'shig'im, torim.

Yor degulik yordir o'zi, shudir davlatim,
E'zozlanar shu yor bilan mening ham otim.
– Shu yor bilan, – deydi O'tkir, – boylik, bisotim,
Shu yor meni shaydo qilgan bog'-u bahorim,
Uni o'ylar, uni kuylar qo'shig'im, torim.

NE DEYIN?

Ne deyin sevgingni, yor, izhor qilishni
bilmasang,
Ishq bilan bir oshig'ing bag'rin tilishni
bilmasang.

Sevgi senda, dil uyida xuddi pinhon
g'unchadek,
Ne deyin, ul g'unchani oshkor etishni
bilmasang.

Ishq ahli kuldi sendan sevgidan begona deb,
Ne deyin, sevgingni tilda sayratishni
bilmasang.

“Dilda yor-u gul diyorum ishq hamrohim”
deding,
Ne deyin, aytib dilingni yayratishni
bilmasang.

Ey go'zal, sevging yashirma, ul ko'zingda
oshkor,
Ishq uyatmas, shul uyatkim, gar sevishtni
bilmasang.

Ne deyin, sevgingni so'ylab, kuylabon
O'tkir kabi,
Va'da aylab ishq bog'iga kelishni
bilmasang.

YO'QOTIBMAN

Ajab, nimanidir yo'qotgandayman,
Narsa yo'qotmaslik menda qoida.
O'ylayman, nimani yo'qotdim deyman,
Qarab chiqdim, hamma narsam joyida.

Bisotim, boyligim, topganlarim but,
Oilam to'ylarga saqlagani jam.
Do'stlar-la bo'lishib, bo'lardim xushnud,
Yuragim doimo edi xotirjam.

O'g'il-qizlarim-u nabiralarim,
Barisi baxtiyor, tinch, sog'-salomat.
Hech kimdan olarim yo'q ham berarim,
Shukur, har vaqt bo'ldi menga yor omad.

Bilolmay qiynaldim, neni yo'qotdim,
O'ylab ham, izlab ham topa olmadim.
Qaddim hamon tetik...
Zum o'yga botdim,
Lek o'ydin voz kechib qo'ya qolmadim.

Nogoh ko'zim tushib qoldi ko'zguga,
Bo'y-u bastim bilan ko'rdim o'zimni.
Sezmagan ekanman ilgari, nega?
Endi aniq ko'rib qoldim yuzimni.

Hayhot, yo'qotganim men endi topdim,
Anchagina yo'qotibman, qarasam.
Avvalgidek emas, boshqacha aftim,
Topolganday bo'ldim yo'qotgan narsam.

Yo'qotibman sochim qaroligini,
Ko'zlarimning nuri-yu o'ynoqligin.
Yo'qotibman yoshlik barnoligini,
Yo'qotmabman yoshlik ruhini lekin.

Ha, yoshligim ruhi qolgan bo'lsa bas,
Saqlay shu ruhni-yu shirin so'zimni.
Yo'qotganim mayli, ular hech gapmas,
Asosiysi, yo'qotmayin o'zimni.

SEVGIM

Sevgim! Sensan mangu hamrohim,
Abad so'lmas gulsan dilimda,
Ajab shirin bolsan tilimda.

Abad so'lmas gulsan dilimda,
Jonim kabi saqlayman seni,
Tirikmanki yoqlayman seni.

Ajab shirin bolsan tilimda,
Seni sevganimga tutaman,
Sendan nasibamni kutaman.

Jonim kabi saqlayman seni,
Ona kabi hurmat etaman,
Murodinga sen-la yetaman.

Tirikmanki, yoqlayman seni,
Xor qilmayman, yerga urmayman,
Hayotmanki, sensiz yurmayman.

Ajab shirin bolsan tilimda,
Sen bor, mening hayotim shirin,
Tilaklarim emas yashirin.

Seni sevganimga tutaman,
Sevgim sira zoye ketmaydi.
Dilrabosan, hech koyitmayсан.

Sendan nasibamni kutaman,
Ishqim sirdir, bilolmas hech kim,
Sendan judo etolmas hech kim.

Jonim kabi saqlayman seni,
Sen-la hamroh Vatanim, yorim,
Sen-la quvnoq jaranglar torim,
Sevgim, sensan mangu hamrohim.

QO'SHIQCHI QIZGA

Ajab, sen sho'x qo'shiq paydo qilibsana,
Qo'shiq aytib meni shaydo qilibsana.

Kuying, sozing Vatan ishq bilan band,
Shu ishq birla tiling go'yo qilibsana.

Dutoring qo'sh ipi titrab urar mavj,
Uni sen kuy oqar daryo qilibsana.

Kuying birla kirib xonam aro sen,
Xayolim ko'zgusin bejo qilibsana.

Ashulang mast qilib, men **tang** qotibman,
Kirib dilga dilimga jo qilibsana.

Bu gulshanda o'zing bulbul ekansana,
Bu bulbulga qiyin savdo qilibsana.

YOR DEGANIM SHU

Yorimni ko'ring, yor degulik yor deganim shu,
Ko'zlarga qarang, ko'zlari xumor deganim shu.

Osmon kabi keng ko'k vodiya ul oy ko'rindi,
Yer oyi go'zal, ko'k oyi bekor deganim shu.

Oydinda kezar suv yoqalab suv parisidek,
Suv ishqida u tunlari bedor deganim shu.

Suv birla jo'yak bag'riga oy nuri taraldi,
Suv qo'ynida, nur qo'ynida ul yor deganim shu.

Oq ko'ylagidan tortadi tong yellari har dam,
Yel ham yashirin men kabi xushtor deganim shu.

Oltin chamani suv ila xandon yetilibdi,
Cho'l suv parisin qo'lida gulzor deganim shu.

BOG'BON QIZ

Bog'ingizga birrov kirsam maylimi?
Gulingizdan bir oz tersam maylimi?
Qo'shig'im bor, gul ishq deb atalgan,
Shuni sizga aytib bersam maylimi?

O'zingizdek bog' ham kulib turibdi,
Husnga ham sizdek to'lib turibdi.
G'unchalardan gul taqqandek gulingiz,
Kelinchakdek go'zal bo'lib turibdi.

Egningizda atlas ko'ylak yonganday,
Shu'lasidan gullaringiz qonganday,
Sizga oy ham havas bilan mo'ralar,
Go'zalligin da'vosidan tonganday.

Sizdek shirin emish bog'ning mevasi,
Mast qilarmish gullaringizning isi.
Qo'lingizdan mehr-sharbat tomarmish,
Shundan emish bog'ning yashnash boisi.

Bog'bon bo'lay, shogird qiling, ey bog'bon,
Dardim nima shunda biling, ey bog'bon.
Endi bilsam sevgi ham bir dard ekan,
Dardlashaylik ochiq, keling, ey bog'bon.

YORIM QAYGA KETIBDI?

Men boray borganimcha,
Yo'l yuray horganimcha.
Yorim nega ketdiykin,
Mendan yiroqqa muncha?

Yo'l yurdim-u yo'l yurdim,
Yo'l yursam ham mo'l yurdim.
Topib oldim yorimni,
Daryo bo'yida ko'rdim.

Daryo to'lib oqarkan,
Suvi loylab oqarkan.
Yorim daryo bo'yida
O'yga to'lib boqarkan.

Suvni yo'ldan urarmish,
Uni cho'lga burarmish.
Yetaklab bu daryoni
Cho'l gashtini surarmish.

Yorim ishq i ham yorda,
Ham bog'i, ham gulzorda.
Ham cho'l-u sahrolarga
Kirib kelgan bahorda.

Men boray borganimcha,
Yo'l yurib horganimcha.
Yorim nega ketibdi
Bildim yiroqqa muncha...

POSTDAMAN BU GAL

(Chegarachi qo'shig'i)

Hamrohindir qurolim, postdaman bu gal,
Tun sochimlek qop-qora, postim o'rmonda.
Lochin kabi sergakman, yovga hukmim hal:
Sherdek yanchib tashlayman ko'rganim onda.

Dilim yorug', ishonch zo'r, kuchim arslondek,
Hayiqmayman, tegramga dadil qarayman.
Yurtinga ko'zin tikkan dushmanni men tik –
Turib albat yengaman, shunga yarayman!

NEGA MUNCHA SUQLI QARAYSAN!..

I

Ko'k malagi, parizodi – Oy,
Sochlarimni muncha taraysan!
Ne tilaging, ne orzuing bor?
Nega muncha suqli qaraysan?

Ayt-chi, osmon qizi, o'zingga,
Kimni Majnun-oshiq bilasan?
Kimga buncha jilvalar bilan,
Jamolingni ko'z-ko'z qilasan?

Bu boqishing, bu nozing bilan
Yuraklarga o'tmi tashlaysan?
Ayt-chi, malak yashirmay mendan,
O'z ko'yingga kimni boshlaysan?

II

Bu yurtdagi har qari, yoshning,
Sevgani bor, sendek husndor.
Sevgisi keng dengiz bo'lsa ham,
Har tomchisin o'zga o'rni bor.

Mayli desang, mening ham sevgim,
Vatanimning har gardiga band.

Yor bo'l desang, go'zal yorim bor,
Dong'i desang, osmondan baland.

Mayli, qancha boqsang boqib to'y,
Do'st bilgin-u ma'shuqlikni qo'y.
To'y boshida turarsan o'zing,
Bahor fasli qilmoqchimiz to'y.

Bugun yorni bir sog'indim-ki,
Xayol uchdi, senga qaradim.
Nurlaringni yor sochi kabi
Kipriklarim bilan taradim.

Sendan tilak, sendan arz, malak,
Ko'zgu bo'lgin, ko'ray o'shani.
Bu husningga husn qo'shadi
Yorginamning chaman gulshani.

Men qaytarman, yorim ko'zida,
Kipriklari yoyni ko'raman.
Uning kundek yorug' yuzida
Ikki to'lin oyni ko'raman...

Ko'k malagi, parizodi – Oy,
Sochlarimni muncha taraysan!
Ne tilaging, ne orzuing bor?
Nega buncha suqli qaraysan?

FAZOGA UCHGAN YIGIT

Mard yigit, botir yigit,
Osmonlarga uchgan yigit.
Kel, peshonangdan o'pay,
Ming bir falak quchgan yigit.

Zo'r yigit, uchqur yigit,
Fazoga sen qo'yding qadam.
Oy bo'lib, oftob bo'lib,
Olamga nur yoydi odam.

Nur yigit, ko'hli yigit,
Sen birla uchdi fan, ilm.
Ko'kni ham zabt etdi bu
Xalqim yaratgan zo'r bilim.

O't yigit, chaqmoq yigit,
Dillarga o't solding o'zing.
Ko'kni ham, har dilni ham
Maftun etib olding o'zing.

Do'st yigit, sirdosh yigit,
Osmon sirin ayt bizga ham.
Ko'ksimiz senga ochiq,
Mehmon bo'lib qayt bizga ham.

Mard yigit, botir yigit,
Osmonlarga uchgan yigit.
Kel, peshonangdan o'pay,
Ming bir falak quchgan yigit.

SOG'INIB

(Askar qo'shig'i)

Ey xayol, borgil salomimni
O'shal yoringa ayt.
Bu sog'ingan dilning ahvolini
Dildoringa ayt.

So'rsa gar yorim mening
Holimni sendan yolvorib,
Xummor ul ishqingda deb,
Yorim vafodoringa ayt.

Har sahar, oqshom dilimni
Yor visoli o'rtagay,
Ko'zlarimda surati, ul –
Lola ruxsoringa ayt.

Gul diyorim ufqida sergak
Va hushyorman mudom.
Saqlagayman ishq-u baxtim,
U madadkoringa ayt.

Yor uchun, dildor uchun,
Gulshan diyor-u or uchun.
Tunlari bedor O'tkir deb,
U beoromimga ayt.

DUR TERIB

(Paxtakor qiz qo'shig'i)

Men yurarman dur terib,
Ham dur terib, ham nur terib.
O'zginam tergan bu durga
Boqaman ko'ngil berib.

Durginam, momiqqinam,
To'lding dalamga nur sochib.
Sen mening boylikkinam,
Kutding meni ko'ksing ochib.

Kel deding, bag'ringga kirdim,
Ter deding, terdim chunon.
Sen vafo qilding menga,
Ochding tugalmas katta kon.

Mehnatim, mehrim o'ti –
Qo'ymas, senga parvonaman.
Ochilib, kulsang menga,
Xumor kishidek qonaman.

Men yurarman dur terib,
Ham dur terib, ham nur terib.
Durginam – oq oltinimga
Boqaman ko'ngil berib.

MASH'AL SHAHRIM

I

Toshkentim, jon Toshkentim,
Ulug' yoshing muborak.
Asrlarga tatigan
Qutlug' yoshing muborak.

Parilarday go'zalsan,
Qarab senga to'yamaymiz.
Qadrdonmiz, biz seni
Qaritgani qo'yamaymiz.

Kelin pardozi qilganday,
Ochilmoqda jamoling.
Dovrug' soldi ellarga
Sening husn-u kamoling.

Yasha, toabad yasha,
Baxti kulgan Toshkentim.
Sharaf'larga, gullarga
Qo'yni to'lgan Toshkentim.

II

Sening mehring nuri bilan
Yashnab ketdi uylarimiz.
Ilhom berding olam-olam,
Seni kuylar kuylarimiz.
Unib-o'sdi quchog'ingda
Necha-nech allomalar,
Tarixingni so'zlab berar
Ular bitgan har nomalar.
Bisoting boy, o'zing go'zal,
Havas bilan boqar jahon.
Yashar sening keng bag'ringda
Farzandlaring bilmay armon.

FARG'ONAM

Bag'ringni och, ona yurtim, g'olib Farg'onam!
Bormoqdaman senga olqish olib, Farg'onam.

Gullagan bog'larni bosib issiq ko'ksingga,
Doim chiroylar qo'shasan go'zal husningga.

O'lkamizning sharaf-shonin ramzi – Farg'ona,
Bag'ishladim senga qutlov – she'riy tarona.

Sening uzoq tarixingga tashlayman nazar,
Noming jahon aro bo'lgan muqaddas azal.

Iskandarshoh necha yurtning boshini eggan,
Ammo qadring qarshisida bosh egib ketgan.

Senda zafar mo'ljalidan oshadi doim,
Senda yana el quvonchi toshadi doim.

Sen quyosh-u oyga yoqqan go'zal vodiysan,
Nur daryosi to'lib oqqan go'zal vodiysan.

Tilsimnamo tog'laringda boylik qatma-qat,
Bog'laringda mevalardan tomadi sharbat.

Sening momiq tuproqlaring "Oq oltin" koni,
Azal, ajab, ko'kka yetar eling xirmoni.

Mahbubalar mehri bilan unar har g'o'za,
Go'yo oppoq durga lim-lim to'lgan zar ko'za.

Nur quyilar ko'zalardan, daryo-daryo nur,
Oqib o'tar dalalardan oqqandayin dur.

Nurga to'lar, durga to'lar cho'llar-u yo'llar,
Zafar tutar doim g'olib dur tergan qo'llar.

Hormang! – deyman – farg'onalik dovon
oshganlar,
Barakali zar, oltini to'lib-toshganlar.

Balli sizga farg'onalik tanti paxtakor,
Sizlar yo'qdan bor qilasiz, sizda hikmat bor.

Balli sizga, diyorimning mirishkorlari,
Sizlar yurtida mo'l hosilning ijodkorlari.

Bag'ringni och, ona yurtim, g'olib Farg'onam,
Bormoqdaman senga olqish olib, Farg'onam.

QO'QONIM

Madh etayin men seni,
Ona shahrim nomingni.
Unutmayman, boshimni –
Silab bergan noningni.
Kulib turgan Qo'qonim,
Kuyga to'lgan Qo'qonim.

Vatan keng osmon bo'lsa,
Sen uning bir yulduzi.
Qaysi yulduz charog'on,
Sensan o'shaning o'zi.
Kulib turgan Qo'qonim,
Kuyga to'lgan Qo'qonim.

Sen shoirlar yurtisan,
Ilm-u ilhomning koni.
Ham qo'shig'-u askiya,
Ulfatchilik makoni.
Kulib turgan Qo'qonim,
Kuyga to'lgan Qo'qonim.

Bag'ring to'la mehmonga,
Doim ochiq dasturxon.
Mehring daryoyi azim,
Orom olar senda jon,
Kulib turgan Qo'qonim,
Kuyga to'lgan Qo'qonim.

XORAZM

Bog' ekansan, Xorazm,
Gulbog' ekansan, Xorazm.
Sen Amu vodiysida
Bayroq ekansan, Xorazm.

Bu azim daryo Amuni
Shart kesib qilding kamar.
Nurga to'lgan bog'laringda
Bol oqib, sharbat tomar.

Qo'li gul, ovozi bulbul,
Husni oydir qizlaring.
Sho'x o'yin-u kulgilarga,
Sho'x kuyga boydir qizlaring.

Paxtazor qo'yniga barcha
Yoshullilarni chorlading.
Tog' qilib "Oq oltin"ing,
Mash'al charog'dek porlading.

Bog' ekansan, Xorazm,
Gulbog' ekansan, Xorazm.
Sen Amuda bag'rikeng,
Qirg'oq ekansan, Xorazm.

SO'RANG

Ishqni bilmoq istasangiz, ishqni borlardan
so'rang,
Sevgi bog'in parvarish qilgguchi yorlardan
so'rang.

Siz muhabbat bog'ining rohatligin gar
so'rsangiz,
Rohatiga mast bo'lgan ko'ngli bahorlardan
so'rang.

Yoki ozorini bilmoq bo'lsangiz ishq yo'lida –
Bilmayin do'zaxga tushgan ishqni xorlardan
so'rang.

Siz qidirmang ishqni tildan, dilda u pinhon
erur,
Chin muhabbatni qidirgan, unga zorlardan
so'rang.

Yorga ko'p xizmat qilib, ishqin olib
bo'lgaymikin,
Deydi O'tkir shunda kuygan sodda yorlardan
so'rang.

ISTASANG

Kel, ey jonon, sen agar ahd-u vafoni istasang,
Izla mayli o'zgani, jabr-u jafoni istasang.

Sevgi darding bo'lsa gar, hech tutma pinhon,
ey sanam,
Sen diling bag'rini och, unga davoni istasang.

Sevgi rohatdir, agar gul deb tikanga
bormasang,
Gul kabi tut sevgini, unga ravoni istasang.

Yo'llaringga ko'zlarin nurin poyondozi etdi yor,
Tingla arzin, sen o'zingga mahliyonini istasang.

Deydi O'tkir, yor vafodor bo'lsa sen
ham qil vafo,
Tanlagan yoring bilan kayf-u safoni istasang.

YOR ETASANMU?

Ey, sevgilim, ayt, men xastani yor etasanmu,
Yo xasta bu deb, ishq yo'lida zor etasanmu?

Dillar tutashib qilgan edi ahd ila paymon,
Ayt, endi diling hukmini bekor etasanmu?

Men dardliman-u, ishqim meni senga yetaklar,
Mayli, meni qo'y, sevgini inkor etasanmu?

Ishq malhamidan tashna yurak topsa shifosin,
Sen bo'lsang firoq dardiga duchor etasanmu?

Sevgim axir tob berdi-ku bu dard-u firoqqa,
Sen ham sevuchi dardiga bir kor etasanmu?

Jo'r bo'l, go'zalim, xasta O'tkir yoring kuyiga,
Qilmay yo vafo ilk sevgini xor etasanmu?

Ey sevgilim, ayt, men xastani yor etasanmu,
Yo xasta bu deb ishq yo'lida zor etasanmu?

ISHQIDA

Gul dedim, gulga tikildim gul-u gulzor ishqida,
Yor dedim, yor birla kezdim, yor-u diydor ishqida.

Qo'lga gulqaychi olib, yonimda yorim,
bog'daman,
Boqaman ikki tomon ham gul-u ham yor
ishqida.

Ikki sevgi tortqilar dilni uzib olgudayin,
Dil yonar topmay iloj ikki vafodor ishqida.

Ey ko'ngil, sig'dir o'zingga ikki ishqning
dardini,
Qil sabr berganda ham gar senga ozor
ishqida.

Yor-u gul menga vafo qilg'ay men ham qilgum
vafo,
Kuymasin O'tkir kabi kimsa xaridor ishqida.

PARVONA BO'LDIM

Parvona bo'ldim shirin so'zingga,
Qilding mahliyo xumor ko'zingga.
Ayta olmayman oshiqligimni,
Ishqim havola, yor, endi o'zingga.

Aql-u kamolingdan,
Baxt-u iqbolingdan,
Shirin kalomingdan,
Yuzdagi xolingdan.

Ko'p yorlar ichra xo'b yor ekansan,
Dildorlar aro dildor ekansan.
Oy chiqdim-u tun yorishdi desam,
Shu tun davrada sen bor ekansan.

Oydek jamolingdan,
Qaddi niholingdan,
Baxti iqbolingdan,
Aqli kamolingdan.

Parvo qilmaysan sen jonon desam,
Maqtamang deysan, mohitobon desam.
Go'zal men emas, san'atim deysan,
Husnda o'zing bir jahon desam.

Odob-u oringdan,
Umri bahoringdan,
Sevganing – yoringdan,
Qo'ldagi toringdan.

YOR BOG'IDA

Yor yurar bog'ida gullar undirib,
Har guli shoxiga bulbul qo'ndirib.
Qo'lda gulqaychi kezar gulzorda yor,
Bog'bonlik kasb-u korin do'ndirib.

Gul terib keldi sanam, gulgun bo'lib,
Dasta-dasta gul bilan, bag'ri to'lib.
Rashk qilib gulzor qo'yimas bag'ridan,
Yo'l to'sib yorim etagidan yulib.

Yor yurar gul ishq dardida yonib,
Egnida atlas libos lov-lov yonib.
Ko'kda oy oqshom tomoshaga chiqib,
Yor husniga boqar xo'b to'lg'onib.

Yor kelur gul bargidan baldoq taqib,
Har gul-u gulzoriga mehri oqib.
Yo'lida suqli nigohlar intizor,
Yor o'tar O'tkir diliga o't yoqib.

XOH YOR ET, XOH YOR ETMA

Sevdim seni yor, xoh yor et, xoh yor etma,
Bo'ldim senga zor, xoh yor et, xoh yor etma.

Qaydanam ko'rdim, tushdim ishq tuzog'iga,
Bo'ldim men bedor, xoh yor et, xoh yor etma.

Yurgayman doim soyang bo'lib izingda,
Dil senga xumor, xoh yor et, xoh yor etma.

Seni yor derman, zora, yor bo'la qolsang,
Qilma bundan or, xoh yor et, xoh yor etma.

Sevgidan yoqqil dilingga sen shamchiroq,
Qilma ishqni xor, xoh yor et, xoh yor etma.

Der O'tkir, kelsa sevgingning xaridori,
Etma intizor, xoh yor et, xoh yor etma.

XAYOL

Zor etib qo'yding, xayol,
Bedor etib qo'yding, xayol.
Sevgi dardiga meni
Duchor etib qo'yding, xayol.

O'ylatib ketding meni,
Ham kuylatib ketding meni.
Kuy bilan sevgimni sen
Oshkor etib qo'yding xayol.

Sevgi ham bir baxt ekan,
Yondirsa ham rohat ekan.
Dildagi ishq faslini
Bahor etib qo'yding, xayol.

Men ilmga yor edim,
Ham unga men darkor edim.
Endi oshiqlikka ham
Iqror etib qo'yding, xayol.

Yoshlik ham bir gul ekan,
Gulni sevish ko'ngil ekan.
Sevgi birla meni kimga
Yor etib qo'yding, xayol.

YORIM KELAR ERMISH

Qo'y sayr-u tomoshangni, dildorim kelar
ermish,
Ishqida ado qilgan ul yorim kelar ermish.

Oy nurini poyandoz etib yozdim yo'liga,
Shul kecha ul ko'zlari xumorim kelar ermish.

Tongda quyosh uyg'onib, peshvoz chiqdi
kutgani,
Shul tongda men intizor, diydorim kelar
ermish.

Bog'da qushlar kuylaydi, yorimni etib ta'rif,
O'z bog'iga yarashgan bahorim kelar ermish.

Yor sog'inchin aytdi yel shivirlab qulog'imga,
Vasl chog'iga intiq bedorim kelar ermish.

Ilm maskanida ilmning asrorin ochib yorim,
Dardmandga bo'lib shifo, madorim kelar
ermish.

Yorning yo'liga peshvoz chiq gul olib, ey
O'tkir,
Ishq-u vafoni o'ylab xaridorim kelar ermish.

EY YOR, QAYDASIZ?

Ilk sahardan kutdim men gulzor bog'imda,
Mana, sizga terganim gul quchog'imda,
Siz doimo dilimda, ko'z qarog'imda,
Ey yor, qaydasiz?

Ko'zim nuri quyildi uyingiz tomon,
Qachon chiqar ekan deb qoshlari kamon,
Yurak tushkur uradi bejo, bearmon.
Ey yor, qaydasiz?

Oy botdi, siz oy bo'lib chiqing, ey dildor,
Ishqingizda kelganni qilmay intizor.
Sizga men zor, tong ham zor, intizor bahor,
Ey yor, qaydasiz?

Kutar bizni gullarda gullar mo'ralab,
Kutgandayin sog'inib chanqoq, intiq lab,
Yuring, gullar teraylik quchoq-quchoqlab,
Ey yor, qaydasiz?

YOR ARAZI

Kelganim qildim xabar, yor bildimi yo
bilmadi,
Bu xabar yo yetmadi, yoki nazarga ilmadi.

Yor sharpasin izlagay bu ko'zlarim mash'al
bo'lib,
O'rtanib ko'nglim so'roqlar, ne uchun yor
kelmadi.

Ming shukurkim ko'zga kirdi yor visoli oy
bo'lib,
Ne qilay, yor kelsa ham bir ochilib-sochilmadi.

Boshida nurdek ro'moli, qo'ng'iroq soch
ko'ksida,
Bir malika suratidek turdi, joydan jilmadi.

Nola qildim gulga oshiq dardli bulbuldek
bo'lib,
G'unchadek qat-qat yopig'liq bag'ri hech
ochilmadi.

Bilsam, u yorning arazi, ham hazil, nozi ekan,
Kuldi-yu berdi salom, noz-u firoqin qilmadi.

AYTAMAN

G'oyibona senga ash'or aytaman,
Axtarib sha'ningga gulyor aytaman,
Har kuni nomingni takror aytaman.
Senga pinhon bir so'zim bor, aytaman,
Ayt desang gar, mayli, oshkor aytaman.

Sog'inib kelsam, xiyol bir boqmading,
O'ylanib surding xayol, bir boqmading.
Dil kuyib, dil bo'ldi lol, bir boqmading,
Senga pinhon bir so'zim bor, aytaman,
Ayt desang gar, mayli, oshkor aytaman.

Tongda ko'rsam, paxtazor-gulzordasan,
Har ko'sakka qo'l cho'zib nur tortasan.
Gohi tilda, goh qo'shiq, goh tordasan,
Senga pinhon bir so'zim bor, aytaman,
Ayt desang gar, mayli, oshkor aytaman.

Elda topding katta shuhrat, katta shon,
Bu qo'shiq-kuy senga mehrimdan nishon.
Shuncha yo'ldan sen uchun keldim, ishon,
Senga pinhon bir so'zim bor, aytaman,
Ayt desang gar, mayli, oshkor aytaman.

KELMADING

Yor, qulog'imga ovozing keldi-yu, sen
kelmading,
Jonga orom so'z-rozing keldi-yu, sen
kelmading.

Darchadan bir boqding-u botding ufqqa
oy kabi,
Bu qaroshing birla nozing keldi-yu, sen
kelmading.

Dilbarim gulgun jamolingni ko'ray deb
orziqib,
Boq desam, boqmay arozing keldiyu sen
kelmading.

Kirmayin kulbamga sen, qo'shnim uyin
obod etib,
Kuylading, kuying-u sozing keldi-yu, sen
kelmading.

Ne uchundir bu firoq deb kuy bilan
berdim savol,
Qo'shig'ing-la noz-u arzing keldi-yu, sen
kelmading.

Nolima yoringdan, O'tkir, boqmading
devor oshib,
Va'da aylab sarvinozing keldi-yu, sen
kelmading.

SIZMISIZ?

Eshigimni qoqib o'tgan sizmisiz,
Qiya ochib, boqib o'tgan sizmisiz?
Tong saharda hovuchingiz to'la nur,
Chiroq qilib yoqib o'tgan szmisiz?

Etakda dur ko'z-ko'z qilib o'tdingiz,
Terganingiz bir yuz qilib o'tdingiz.
Hormang desam, nurga sho'ng'ib, jilmayib,
Shirin-shakar bir so'z qilib o'tdingiz.

Oy botmasdan tongni kutib tur deysiz,
Oltin ko'lga dur tergani yur deysiz.
Quloch ochib to'lqinlatib suzgangday,
Terib oltin, terim gashtin sur deysiz.

Vodiy nurga to'lsa siz ham to'libsiz,
So'lim bo'lsa, siz ham so'lim bo'libsiz.
Dala go'yo yulduz to'la keng osmon,
Unda porlab siz oy bo'lib turibsiz.

Endi bilsam, siz paxtakor ekansiz,
Hamda nomdor, hamda dongdor ekansiz.
Xizimatingiz, hurimatingiz bir jahon,
Ham vafodor, ham yaxshi yor ekansiz.

BEVAFO YORGA

Axtarib kebsiz-da, yor,
Bo'lib g'arib kebsiz-da, yor.
Navqironman deb ketib,
Oxir qarib kebsiz-da, yor.

Yangi yor deb ketdingiz,
Men unga zor deb ketdingiz.
Yangi yor diydoriga men
Intizor deb ketdingiz.

Yangi yor yoqmabdi-ku,
Sizga qiyo boqmabdi-ku.
Avrasangiz ham ilondek,
Suv bo'lib oqmabdi-ku...

Bevafo yor – yor emas,
U bevafolik or demas.
Topsa gar begona yorni,
Uyda yorim bor demas.

Eski yor og'ar demang,
Menga yana boqar demang.
Dilda o'chgan ishq chirog'in
Qayta u yoqar demang.

AYTING O'ZINGIZ

Gul bersam taqqan edingiz,
Jilmayib boqqan edingiz.
Menga xo'b yoqqan edingiz,
Bormi bir aytar so'zingiz,
Ne qilay, ayting o'zingiz?

Oshiqligim bilmadingiz,
Imlasam ham kelmadingiz.
Yo nazarga ilmadingiz,
Bormi bir aytar so'zingiz,
Ne qilay, ayting o'zingiz?

Yaxshi yor topdim degandim,
Ishq bolin totdim degandim.
Sizni deb kuylab kelgandim,
Bormi bir aytar so'zingiz,
Ne qilay, ayting o'zingiz?

Yuzda xolmi yoki g'uncha,
Yarashibdi sizga muncha.
Husn olibsiz qaydan shuncha,
Bormi bir aytar so'zingiz,
Ne qilay, ayting o'zingiz?

Zo'rim yo'q, bor oh-u zorim,
Niyatim shu – bo'ling yorim.
O'tkir yozdi dilda borin,
Bormi bir aytar so'zingiz,
Ne qilay, ayting o'zingiz?

ARMON

(Ota-onamni eslab)

Otajonim, men sizni yod etmadim,
Keksa chog'ingizda imdod etmadim.
Mendan bo'ling rozi, pir-u muhtaram,
Xizmat aylab ruhingiz shod etmadim.

Eslayolmam siz padar diydorini,
Eslayolmam sochingizning qorini.
Qabringiz ustida men bo'ldimmikin,
Eslayolmam yosh yurakning zorini.

Ko'zdagi yoshimni kim artdi shu on,
Eslayolmam, yoshmidi u yoki qon.
Boshginamni ko'kragiga bosdi kim?
Og'alarmu yo volida mehribon...

Norasida edim, hayhot, onam ham,
Tashlab ketdi poralik bag'rimga g'am.
Darbadarlik qildi devona meni,
Bo'lolmadim qabringiz ustida sham.

Ruhingizni yod etadurman, padar,
Onam-u siz men bilan umrim qadar.
Sizni eslab qon yurak bo'ldi ado,
Ko'zda yoshim, dilda qayg'um sarbasar.

ONAMNI ESLAB

Tug'ildandan esim kirgandan buyon,
Boshdan kechirdim zo'r ikki motamni.
Birida yosh edim – otam o'lgan on,
Juda og'ir tortdim ikkinchi g'amni.

Mehribon onajon, siz oramizda –
Yo'qsiz demoqlikka bormaydi tilim.
Qoldingiz, onajon, har zorimizda,
Ziyoratga har dam otilar dilim.

Mehribon onajon, bugun oilam
Topa olmas sizni ta'riflashga so'z.
Qanchalar maqtovlar, e'zozlashlar kam,
Rasmingizga qarab to'ymayapti ko'z.

Mehribon onajon, siz dard chekkan on,
Dardingiz barobar tortgan edim-ku.
Axir bermoqlikka rozi edim jon,
Lek malham bo'lolmay, o'zni yedim-ku.

Yuragim yig'laydi sizni yo'qotib,
Ruhingizni ko'mdim qalbim qo'riga,
Onajon, chehrangiz quyoshdek balqib,
Har tong chiqar endi uyning to'riga.

OQ BULUT, OPPOQ BULUT

Oq bulut, hay, oppoq bulut,
Shoshib qayga borasiz?
Osmonimiz oppoq qilib,
Moviy qilib saqlang siz.

Oq bulut, hay, oppoq bulut,
Sof bo'lsin ko'k-u havo.
Sof havo bu dunyo uchun,
Hayot uchun xo'b davo.

Oq bulut, hay, oppoq bulut,
Osmonimizni pok tuting.
Yo'lingizni qo'riqlaylik,
Undan siz yayrab o'ting.

Oq bulut, hay, oppoq bulut,
Oqni sevib, oq kiydik biz.
"Yo'lovchi"ga tinchlik tilab,
"Oq yo'l senga" dedik biz.

Oq bulut, hay, oppoq bulut,
Oqlik tinchlikning boshi.
Osmon-u yer bulg'anmasin,
Tinchlik elning yo'ldoshi.

BOQAMAN

Qush kabi tongni kutib, gulgun nahorga
boqaman,
Husnini ko'z-ko'z qilib kelgan bahorga
boqaman.

Har nihol tillo-yu bargi ko'rinur zumrad bo'lib,
Yer-u ko'kni mahliyo qilgan diyorga boqaman.

Bu diyorga ming oftob-u ming tuman bergay
ziyo,
Bu ziyolardan ko'kargan baxtiyorga boqaman.

Baxtiyorlardan biri – men, baxt-u iqbolim
baland,
Gul hayotimga sherik sevikli yorga boqaman.

Qayga borsam, do'st ko'rarman, qayga
boqsam gul-u nur,
Har tomonda do'stni kutgan intizorga
boqaman.

Bo'ldi gulgun bu diyorga hamnafas to'y-u
bahor,
Kuylab, O'tkir, baxtga jo'r bo'lgan dutorga
boqaman.

KELINLAR

Uyimizga yarashgan, go'zal, barno kelinlar,
Hovlimizda ochilgan gul-u ra'no kelinlar.

Siz keldingiz gurkirab, uyimizga fayz kirdi,
Tun yorishdi siz bilan nur-u ziyo kelinlar.

Qaynonaga qiz bo'lib, yengil qilib og'irin,
Oilaga parvona mehriyogo kelinlar.

Yoriga ham vafodor, uning ishqida bedor,
Yuzi issiq, tili bol, so'zi dono kelinlar.

Qarindoshga mehribon, hammamizga
qadrdon,
Ham chevar-u, ham dilbarsiz bebaho kelinlar.

Qaynota, qaynonaga siz qosh-u ko'z
bo'ldingiz,
O'tkir deydi, ta'rifi bo'lmas ado kelinlar.

GUL SO'RAB

Boqqa kirdim gul so'rab,
Gullar oldilar o'rab.
Salom bergan bog'bonga
Qiyο boqdim yotsirab.

Bog'bon dedi: "Yopiray!
Keling, mehmon, gul beray.
Gullarim bor chiroyli,
Quchog'ingiz to'ldiray..."

Oshiq edim men gulga,
Bog'bon esa bulbulga.
Ham gul-u, ham bulbuli,
Yoqdi ikki ko'ngilga.

Qo'shiq aytdim gul terib,
Gulga mehrimni berib.
Bulbulga oshiq bog'bon
Kuyim tingladi erib.

Kuyimda gul-u gulzor,
Ham sevikli go'zal yor.
Ham baxt-u, ham taxt berib,
Ardoqlagan bu diyor.

ILHOM IZLAB

Ilhom izlab ketdim yiroq,
Har eshikka tutdim quloq.
– Qaydasan? – deb berdim so‘roq,
Ilhom: – Kel, men shunda, – dedi,
– Kelib turgin kunda, – dedi.

Bir yon boqsam bog‘ imladi,
Soy bo‘yi, qirg‘oq imladi,
Huv narida tog‘ imladi.
– Ilhom koni shunda! – dedi,
– Kelib turgin kunda, – dedi.

Hayot oqar soydek toshib,
Kun bir-birin quvib oshib.
Qayga boqay, qoldim shoshib,
– Qayna sen ham shunda, – dedi,
– Kelib turgin kunda, – dedi.

Qayga ketdi xayol-daydi,
Ilhom meni tortqilaydi.
Mendan qo‘shiq, kuy tilaydi.
– Qo‘shiqqa she‘r shunda, – dedi,
– Kelib turgin kunda, – dedi.

MUNDARIJA

Yog'il, she'rim.....	3
“Men she'rimni...”	4
Diyorim.....	5
Qo'shig'imda sen.....	6
Yo'ling yorug', Toshkentim.....	7
U mening kuyimda.....	8
Sen tufayli.....	10
O'zbekistonim.....	11
Bog'im yaxshi, bahorim yaxshi.....	12
Tinchlik kuyi.....	13
Xalqimga.....	14
Mehrim.....	15
Xaritaga qarayman.....	16
Vatanim.....	17
O'zbekning g'ururi.....	18
Yashamoqda.....	20
Yillar va odamlar.....	21
Gulshandiyorim.....	22
Kuylagayman.....	24
O'zbekiston deydilar.....	25
Ishqingda yonib.....	26
Dalam.....	27
Shunda, dedim.....	28
Mehring.....	29

Yurtim bahori.....	30
Mening ishqim.....	31
Yo'llarim.....	32
Odamlar.....	33
Umr.....	34
O'zingdandir.....	35
Yaxshiroq.....	36
Atlas ko'ylaging.....	37
Madadkorlar.....	38
Yoshlik yallasi.....	39
Onalar, dugonalar.....	40
Ko'z shifokorlari.....	41
Farzand.....	42
O'qituvchi.....	43
Do'ppimiz.....	44
Salom.....	45
Keling, yor, ko'ring.....	46
Tong ohangi.....	47
O'ylarim.....	48
Yulduzim.....	49
Sportchiman.....	50
Chaqaloqlar.....	51
Bahor tongida.....	52
Onalar.....	53
Ayollar.....	54
Yor uchun.....	55
To'y muborak.....	56
Xush kelibsiz to'yimizga.....	57

Kelin salom.....	58
O'ylasam.....	60
Muncha yaxshisiz?.....	61
Boqqakirdim.....	62
Bilganmisiz?.....	63
Qo'shni qiz.....	64
Qishlog'imizning ko'rki.....	65
Qo'shig'im bor, qo'shig'im.....	66
Kel, dedi.....	67
Kim desam?.....	68
Ne deyin?.....	69
Yo'qotibman.....	70
Sevgim.....	72
Qo'shiqchi qizga.....	73
Yor deganim shu.....	74
Bog'bon qiz.....	75
Yorim qayga ketibdi?.....	76
Postdaman bu gal.....	77
Nega muncha suqli qaraysan?.....	78
Fazoga uchgan yigit.....	80
Sog'inib.....	82
Dur terib.....	83
Mash'al shahrim.....	84
Farg'onam.....	86
Qo'qonim.....	88
Xorazm.....	89
So'rang.....	90
Istasang.....	91

Yor etasanmu?.....	92
Ishqida.....	93
Parvona bo'ldim.....	94
Yor bog'ida.....	95
Xoh yor et, xoh yor etma.....	96
Xayol.....	97
Yorim kelar emish.....	98
Ey yor, qaydasiz?.....	99
Yor arazi.....	100
Aytaman.....	101
Kelmading.....	102
Sizmisiz?.....	104
Bevafo yorga.....	105
Ayting o'zingiz.....	106
Armon	108
Onamni eslab.....	109
Oq bulut, oppoq bulut.....	110
Boqaman.....	111
Kelinlar.....	112
Gul so'rab.....	113
Ilhom izlab.....	114

Adabiy-badiiy nashr

O'tkir RASHID

SIZ BOR EKANSIZ, O'YLASAM...

She'rlar

Muharrir: *Dilrabo Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *Farrux Ermatov*

Sahifalovchi: *Azamat Qayumov*

Musahhih: *Dilfuza Mahmudova*

UO'K: 821.512.133

KBK: 84(50)6

R 31

O'tkir RASHID

R 31 **Siz bor ekansiz, o'ylasam...** [matn]. {she'rlar}/
O'tkir RASHID. – T.: «Adabiyot» nashriyoti,
2021. – 120 b.

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«ADABIYOT NASHRIYOTI» MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2021.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.
Tg: (+98) 127-30-04.

Bosishga 20.09.2021-yilda ruxsat etildi.
Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90^{1/32}.
Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 3.7.
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma №

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.